



## LINGVOKULTUROLOGIYA VA METAFORA HODISAS ( O'. Hoshimov "Bahor qaytmaydi" qissasi misolida)

---

*Bardiyeva Gulasal Umidbek qizi*

*gulasalbardiyeva@gmail*

*Urganch davlat universiteti*

*Filologiya fakulteti 223-guruh talabasi*

**Annotatsiya:** *Maqolada lingvokulturologiya sohasi va uning asosiy elementlaridan biri hisoblangan metafora hodisasi va uning turlari O'. Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasi misolida tahlilga tortilgan.*

**Kalit so'zlar:** *lingvokulturologiya, madaniyat, metofora, turg'un metafora, matn-metafora, individual-muallif metaforalar, metaforik birlik.*

**Abstract:** *In the article, the field of linguistic and cultural studies and the phenomenon of metaphor and its types are considered one of its elements. It is analyzed on the example of Hashimov's short story "Spring does not return".*

**Key words:** *linguistic culture, culture, metaphor, stable metaphor, text-metaphor, individual-author metaphors, metaphorical unity.*

**Абстрактный:** *В статье область лингвокультурологии и феномен метафоры и ее основных элементов. Анализируется на примере рассказа "Гашимова Весна не возвращается".*

**Ключевые слова:** *лингвистическая культура, культура, метафора, индивидуально-авторские метафоры, метафорическое единство.*

Har bir tilda yaratilayotgan asar o'sha til mansub bo'lgan xalqning madaniyatidan, o'tmishidan, an'ana va urf-odatlaridan kelib chiqqan holda yaratiladi. Har qanday asarga xalq madaniyatining aksi singdirilgan bo'ladi. Zero, til-millatning ko'zglasidir.

XX asr oxirlarida tilshunoslikning yangi sohalaridan biri lingvokulturologiya sohasi paydo bo'ldi va rivojlandi. Bu soha aynan shu hodisa, til va madaniyatning o'zaro uyg'unligini o'rganuvchi sohadir. Tilga faqat madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalashga xizmat qiladigan vosita sifatida qarash bu sohaning yanada rivoj topishiga asos bo'ldi.

O'zbek tilida madaniyat so'zi (arab.- svilizatsiya) quyidagi ma'nolarda qo'llanadi:  
1) jamiyatning ishlab hiqarish, ijtimoiy, ma'naviy- ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan



yutuqlari; 2) biror ijtimoiy guruh, sinf va xalqning ma'lum davrda qo'lga kiritgan shunday yutuqlari<sup>1</sup>.

Til bizning hayot tarzimizni tavsiflovchi ijtimoiy meros qilib olingan malaka va g'oyalar majmuyi sifatida madaniyatdan tashqari mavjud bo'lolmaydi. Til inson faoliyatlarining biri sifatida madaniyatning tarkibiy qismi hisoblansa-da, tafakkur shakli va muloqot vositasi sifatida madaniyat bilan bir qatorda turadi<sup>2</sup>.

Ana shu madaniyatning tashuvchisi hisoblangan hodisa bu tildir, albatta. Shu tilde yozilayotgan asarlar orqali bu amalga oshiriladi. Asar qanchalik sevib o'qilishini esa uning leksik va grammatik tuzilishi hamda lingvokulturologik birliklari belgilab beradi.

Bugungi kunda lingvomadaniyatshunoslikni muayyan yo'l bilan saralangan madaniy qadriyatlar majmuyini o'rganadigan, nutqni yaratish va uni idrok qilishdagi jonli kommunikativ jarayonlarni, lisoniy shaxs tajribasini va milliy mentalitetni tadqiq etadigan, olam manzarasining lisoniy tasvirini tizimli ravishda beradigan, ta'limning bilim olish, tarbiyaviy va intellektual vazifalarining bajarilishini ta'minlaydigan yangi filologik fan sifatida qayd qilish mumkin. Demak, lingvomadaniyatshunoslik madaniyat va tilning o'zaro aloqasi va o'zaro ta'sirini va bu jarayonni lisoniy va nolisoniy(madaniy) birliklarning bir butun strukturasi sifatida aks ettiradigan kompleks fandır<sup>3</sup>.

Linvomadaniyatning frazalogik birliklar, o'xshatishlar, lakunalar, evfemizm, ramz kabi birliklari bilan bir qatorda metafora hodisasi ham asosiy birliklardan biri hisoblanadi. Yozuvchi o'z asarida bu hodisani qo'llash orqali yanada tushunarliroq va go'zalroq tasvir yaratishi mumkin. Metafora hodisasining yuzaga chiqishida shakliy o'xshashlik yoki voqea holatidagi bir xillik asos vazifasini bajaradi.

Metafora (yun. Metaphora- ko'chirish). Bir predmetning nomini boshqa predmetga biror tomondan o'xshashligini e'tiborga olib ko'chirish. Metafora so'znig yangi ma'nolari hosil bo'lishida qatnashadigan omillardan biridir. Mas., *qanot, kosa, arafa* so'zlarining *samolyot qanoti, tarvuzning kosasi, bayram arafasi* birikmalaridagi ma'nosi metafora asosida hosil bo'lgan<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> O'zbek tilining izohli lug'ati. II. – Toshkent. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. –B. 521.

<sup>2</sup> Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи –М.: Прогресс, 1993. –С. 185.

<sup>3</sup> Воробьев В. В. О. статье лингвокультурологии// IX Международный конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т.2. –Братислова, 1999. –С. 125-126.

<sup>4</sup> Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Т.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" ilmiy nashriyoti, 2002, -B. 63.



Metafora. Bir obyekt nomini ikkinchi obyektga o'xshatish asosida ko'chishi; konseptuallashtirish turlaridan biri. Metaforalar nutqda so'z, birikma, gap va matn shaklida ifodalanadi<sup>5</sup>.

Ijodkor o'z asarida oddiy tasvirdan ko'ra metaforik birikmalar qo'llash orqali yaratadi. Gegel bu haqida: "O'z ma'nosida qo'llaniladigan so'z o'z-o'zidan tushunarli ifodadir, metafora esa boshqacha ifodadir"<sup>6</sup>, - deb yozadi.

Metaforalardan foydalanishning juda go'zal namunasi O'tkir Hoshimov asarlarida uchratish mumkin. Ayniqsa, "Bahor qaytmaydi" qissasida ularni juda faol qo'llagan:

*...Tumanlik qo'ynida jimgina mudragan tonglar, ilk sovuq og'ushida junjikkan seryulduz oqshomlar boshladi...<sup>7</sup>*

Bu gap tarkibida *tumanlik qo'ynida, sovuq og'ushida, junjikkan oqshamlar* birikmalari orqali metafora yuzaga kelgan.

*...Faqat bitta hovlida- qishloq chekkasida, shundoqqina anhor yoqasida joylashgan hovlida sukunat hukm suradi, faqat bir kishi yolg'iz o'z tashvishi bilan band edi...<sup>8</sup>*

Ushbu gapda esa *qishloq chekkasida, anhor yoqasida* kabi birikmalar misolida metaforani uchratish mumkin.

*...Chekka-chekkadagi azamat yong'oqlar shov-shuv etib, o'tib ketgan bahorini eslaganday jimgina xayolga tolgan, o'riklarning qonday qizargan yaproqlari uzulib ketishdan cho'chib titrab turibdi...<sup>9</sup>*

Bu gap tarkibidagi *jimgina xayolga tolgan yaproqlar* birikmasi orqali metafora hosil bo'lgan.

Metaforalar, asosan, bir xususiyat yoki shakl o'xshashligi asosida kelib chiqadi. Shuningdek, so'zlarning o'z ma'nosidan uzoqlashib, ko'chma ma'noda qo'llanilishi ham metaforaga misol bo'la oladi. N. D Arutyunovanning qayd qilishicha, metaforada yolg'on va haqiqat o'zaro birlashadi... Metafora nafaqat qisqargan o'xshatish, shu bilan birga qarama-qarshilik hamdir<sup>10</sup>.

O'tkir Hoshimov asarlarida bunday metafora turlarini juda ko'p uchratish mumkin. Jumlasdan "Bahor qaytmaydi" qissasida *og'ir-vazmin qadam, tansiq nur, o'tkir hid, tekis nafas olmoq, chuqur his qilmoq, o'ychan ohang, xira tuyg'u, erka*

<sup>5</sup> D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –T.: "Turon zamin ziyo", 2015. –B. 31.

<sup>6</sup> Gegel. –M., 1969.-C. 115.

<sup>7</sup> O'tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi. "Yangi asr avlodi", 2015. –B. 3.

<sup>8</sup> O'tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi. "Yangi asr avlodi", 2015. –B. 4.

<sup>9</sup> O'tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi. "Yangi asr avlodi", 2015. –B. 5.

<sup>10</sup> Арутянова Н. Д. Метафора дискурс//Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990. –С. 5-32.



*tabassum, soddagina jilmaymoq, yupqa lablari, iliq mehr, daryo bo'yi, yo'l chekkasi, qishloq usti, kuz libosi, anhor yuzi* kabi birikmalarning barchasi so'zning ma'no ko'chishi natijasida metaforaga misol bo'ladi.

Matn-metafora. Ikki tushuncha yoki vaziyatning o'xshashligiga yashirin tarzda ishora qiluvchi, mazmuni assotsiativ ravishda idrok qilinadigan matn; metaforik birliklarning bir turi<sup>11</sup>.

Matn-metaforalarda matndan alohida bo'lgan bosh ma'nosidan uzoqlashgan holda yangi bir ma'no ifodalab keladi. Bu birikmadagina anglashiladi. O'. Hoshimovning "Bahor qaytmaydi" qissasida buni *yo'lovchilar daryosi* birikmasi orqali keltirish mumkin. *Daryo* so'zi bu birikmada o'z ma'nosidan ancha uzoqlashib, "to'da, guruh" kabi ma'nolarni anglatadi.

Metaforalarni ham xuddi o'xshatishlar singari turg'un va individual-muallif metaforalariga ajratish mumkin. Turg'un metaforalarga dunyo-bu-teatr, dunyo-bu-kitob, sevgi- bu-olov, vaqt-bu-pul va h. k. misol bo'ladi<sup>12</sup>.

O'tkir Hoshimov ijodida o'zining o'zgacha uslubi tufayli individual-muallif metaforalarini qo'llash ustunlik qiladi.

Metafora tildagi universal hodisa bo'lib, u barcha tilga xosdir. Uning universalligi makonda va zamonda, til strukturasi hamda uning vazifalarida namoyon bo'ladi. Metafora o'zida fundamental madaniy qadriyatlarni aks ettiradi, zero, u milliy-madaniy dunyoqarashga asoslangandir<sup>13</sup>.

Shuni ta'kidlash joizki, metafora hodisasi lingvokulturologiya sohasi rivojiga ta'sir qilishda katta ahamiyatga ega, shuningdek, yozuvchilar asarlarida tilimiz xususiyatlarini yanada aniqroq ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbek tilining izohli lug'ati. II. – Toshkent. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2006. –B. 521.
2. Сепир Э. Язык. Введение в изучение речи –М.: Прогресс, 1993. –С. 185.
3. Воробьев В. В. О. статее лингвокультурологии// IX Международный конгресс МАПРЯЛ. Русский язык, литература и культура на рубеже веков. Т.2. –Братислова, 1999. –С. 125-126.
4. Azim Hojiyev. Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati. –Т.: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" ilmiy nashriyoti, 2002, -B. 63.

<sup>11</sup> D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –Т.: "Turon zamin ziyo", 2015. –B. 30.

<sup>12</sup> Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –Т.: Bookmany print, 2022. –B. 130.

<sup>13</sup> Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Вьестю учеб, заведеный. –М. Издательский уентр "Академия", 2001. –С. 88, 91.



5. D. Xudoyberganova. Lingvokulturologiya terminlarining qisqacha izohli lug'ati. –Т.: “Turon zamin ziyo”, 2015.
6. Gegel. –М., 1969.-С. 115.
7. O'tkir Hoshimov, Bahor qaytmaydi. “Yangi asr avlodi”, 2015.
8. Арутянова Н. Д. Метафора дискурс//Теория метафоры. –М.: Прогресс, 1990. –С. 5-32.
9. Usmonova S. Lingvomadaniyatshunoslik. –Т.: Bookmany print, 2022. –В. 130.
10. Маслова В. А. Лингвокультурология. Учеб. Пособие для студ. Вьестю учеб, заведений. –М. Издательский уентр “Академия” ,2001. –С. 88, 91.